YANGI O'ZBEKISTON BADIIY TA'LIMI: RIVOJLANISH VA ISLOHOTLAR

Nargiza Xasanova Sagdullaevna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti,
Muzeyshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi, s.f.f. doktori (PhD)
nargiss1981@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7699958

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston badiiy ta'lim sohalari rivojida aktual ahamiyat kasb etuvchi ijodkor-rassom hamda ijodkor-pedagoglarni tayyorlashda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosidagi ta'lim tizimi Qaror va Farmonlari va me'yoriy hujjatlari mazmun mohiyatining tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, akademik badiiy ta'lim, YUNESKO, "XXI asr ijodiy potensialini rivojlantirish bo'yicha analitik tahlili", Qaror va Farmon, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: РАЗВИТИЕ И РЕФОРМЫ

Хасанова Наргиза Сагдуллаевна
Старший преподаватель кафедры музееведения Национального института художеств и дизайна Камолиддина Бехзода,
доктор философии по искусствоведения (PhD)

Аннотация: В статье проводится анализ сущности Постановлений и Указов и нормативных документов системы образования, основанных на принципах целостности и преемственности в подготовке творческих художников и творческих педагогов, имеющих актуальное значение в развитии искусства сферы художественного образования Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, академическое художественное образование, ЮНЕСКО, «Аналитический обзор по развитию творческого потенциала XXI века», Постановление и Указ, Закон «Об образовании».

ART EDUCATION IN THE NEW UZBEKISTAN: DEVELOPMENT AND REFORM

Khasanova Nargiza Sagdullaevna

Senior lecturer of the department Museum Studies of the National institute of arts and design by Kamoliddin Behzod,
Doctor of Philosophy in Art History (PhD)

Annotation: The article analyzes the essence of the Decisions and Decrees and regulatory documents of the education system, based on the principles of integrity and continuity in the training of creative artists and creative teachers, which are of relevance in the development of art in the field of art education in New Uzbekistan.

Key words: New Uzbekistan, academic art education, UNESCO, "Analytical review on the development of the creative potential of the 21st century", Resolution and Decree, Law "On Education".

Bugungi kunda dunyoda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ijtimoiy munosabatlar kesimida badiiy ta’lim shakl va mohiyatining o‘zaro muvofiqligi muhim ahamiyatga egadir. Hozirda takomillashib borayotgan mazkur soha oliy badiiy ta’lim amaliyotida kvalifikatsion yondashuvga nisbatan kompetent yondashuvning muhimligini ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan Yangi O‘zbekiston badiiy ta’lim sohalari rivojida aktual ahamiyat kasb etuvchi ijodkor-rassom hamda ijodkor-pedagoglarni tayyorlashda uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga amal qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, badiiy jarayonda kechayotgan nau xau va innovatsiyalarni badiiy ta’limga singdirish masalasi ustuvorlik kasb etmoqda.

Shu bilan bir qatorda, jahon miqyosida zamonaviy badiiy ta’limda bo‘lg‘usi ijodkor-yoshlarning mahorati darajasiga bo‘lgan talab va ijodkor sifatida zamondoshi oldidagi mas’uliyati rassomning ma’naviyati yuksakligini birinchi o‘ringa qo‘ymoqda. Bu borada, YUNESKO/MFGSning MDH (ЮНЕСКО/МФГСнинг МДҲ) davlatlari uchun yo‘l xaritasi doirasida tayyorlangan “XXI asr ijodiy potensialini rivojlantirish bo‘yicha analitik tahlili” muqaddimasida ta’kidlanishicha jamiyat rivojining hozirgi davri bir tomondan texnik va texnologik jarayonlar intensivlik darajasi, boshqa bir tomondan o‘tkir ijtimoiy – madaniy qarama-qarshiliklar mavjudligi bilan farqlanadi, deyiladi. Inson resurslari sifat ko‘rsatkichining jadalligini ta’minlaydigan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va havfsizlikni kafolatlaydigan universal yondoshuv yo‘llarini izlash jarayonlari jadallashayotgani bois hozirgi davrda duch keladigan muammolar o‘tkirligi diqqat e’tiborni badiiy ta’limga yo‘naltirish zarurligini belgilab bermoqda. Natijada, badiiy ta’limda professional kompetentlik, boshqacha aytganda, mahoratning yuqori darajasi va ijodkor dunyoqarashida insoniylik tamoyillari bilan o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, ustoz-pedagoglar zimmasiga ustuvor mas’uliyat yuklamoqda.

Bunda avvalo, yurtimiz san’atshunosligida Yangi O‘zbekiston badiiy ta’limi hamda tasviriy san’ati rivojida muhim bo‘lgan “Uchinchi Renessans” davri san’ati va madaniyati yutuqlarini tizimli tahlili yoritilgan ilmiy tadqiqot ishlari, amaliy loyiha va takliflar ko‘lamini kengaytirishga dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmog‘i lozim.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ustuvor vazifalarga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgani, bu borada ko‘plab Qonun va Farmonlar ishlab chiqilayotgani quvonarli albatta. Xususan, so‘nggi yillarda respublikamizda badiiy ta’lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va usullarning joriy etilishi, jumladan, sohada xorijiy tajribaning integratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu haqida Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: “Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atiga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelmoqda, turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkorlar, xususan rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san’at maydonidan munosib o‘rin egallashga intilish tendensiyalari ko‘zga tashlanmoqda”[1]. Bu borada milliy badiiy ta’lim tizimining shakllanish jarayonlari, rivojlanish tamoyillari, mavjud an’analar va sohadagi innovatsion yondashuv natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni yurtimiz fuqarolari ma’naviyatiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, tasviriy san’at kompozitsion asarlarida jamiyatda dolzarb bo‘lgan yutuq va muammoli masalalari insonlarining badiiy qiyofalarida aks ettiriladi, oqibatida asrlarga muhrlanadi.

Shunisi e’tiborliki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3219-son “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 21 apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 yanvardagi 8-son “Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti faoliyatini yanada takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Shuni quvonch bilan ayta olamizki, bugungi kunda ta’limning barcha sohalari qatori badiiy ta’lim sohalarini ham tubdan takomillashtirish yurtimizning Uchinchi

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги “Ўзбекистон Бадиий академияси фаолиятини ривожлантириш ва янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-219-сон қарори // “Халқ сўзи”, 2017 йил 17 август.

Renessans davri talabiga aylanoqda. Tabiiyki, bu jarayonda, ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta’lim sohasini tubdan isloh etishga qaratilgan qonunlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan Qarorni ham ana shunday buyuk maqsadlar ya’ni, Yangi O‘zbekiston badiiy ta’limining rivojida beqiyos ahamiyat kasb eta oladigan aktual yo‘nalishlarga doir vazifalarni amaliyotga joriy etishga qaratilanligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy tamoyillar, ta’lim tizimi o‘ziga xosliklari, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Qonunda individual ta’limga oid qoidalar belgilanib, u ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonundan tubdan farq qiladi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Hususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joziki, mamlakatimizning ta’lim sohasi me’yoriy hujjatlari jahon andozalari darajasida yangi kirib kelayotgan uzluksiz ta’lim tizimi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etadi ya’ni, bunda umumta’lim dasturlari keyingi ta’lim dasturlari o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi dasturlari bilan

uyg‘unlashib ketadi. Bu tasviriy san’at asrlar mobaynida shakllangan ta’limi tizimiga hamohang ekanligi bilan e’tiborni jalb etadi. Tasviriy san’atda asar yaratish ijodkordan katta mahorat va tinimsiz izlanishlarni, shu ma’noda soha ta’limini erta boshlashni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida uzluksiz ta’lim tizimi an’anasiga ega boshlang‘ich badiiy va o‘rta tasviriy san’at ta’limi, o‘rta maxsus va oliy (bakalavriat va magistratura) badiiy ta’limini o‘z ichiga oladi. Mustaqil mamlakatimizning ta’lim sohasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, jahon andozalari darajasidagi reformalar ma’nosida, uzluksiz ta’lim tizimini ta’lim qonuni sifatida amalga oshirilishi ahamiyatlidir.

Bunday ta’lim tizimini shakllantirilishi soha xodimlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Barchasi, Yangi O‘zbekiston badiiy ta’limi rivojida ma’suliyatli bo‘lgan har bir tashkilot, muassasa va rahbarlardan tortib ularda faoliyat olib borayotgan pedogik jamoaga ham katta mas’uliyat yuklatilganligi, avvalo me’yoriy hujjatlarni o‘tkazilayotgan reformalar va tasviriy san’at ta’limi asriy an’analari darajasidagi shaklini yaratish, qolaversa, kelajakdagi istiqbolini belgilab beradigan rejalarni amalga oshirishni ko‘zlab ish yuritishlarini talab etmoqda.

Undagi uzluksiz ta’lim tizimi sifatida ta’lim sohalari bo‘yicha uzviyligini ta’minlash hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan. Buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar yaratilgan ekanligiga qaramasdan ularga jahon miqyosida aktuallik kasb etayotgan badiiy ta’lim sohalariga o‘qitishning yangidan yangi metodlari, innovatsiya va nau xaularini yanada izchil holda ta’lim jarayonlarida qo‘llash muhim sanaladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, “Uchinchi Renessans” davrini shakllanishiga asos bo‘lgan Yangi O‘zbekiston rivojida ta’limning barcha sohalari qatorida badiiy ta’lim sohalarida kadrlar tayyorlaydigan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining ma’suliyati kundan kunga oshib bormoqda. Sababi, Yangi O‘zbekiston rivoji avvalo intellektual firklaydigan, o‘z sohasi doirasida tengi yo‘q mutaxassis va liderlik qobiyati yuqori bo‘lgan yoshlar shakllanashiga chambarchas bog‘liq. Jumladan, bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan jahondagi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimlari islohotlaridan aslo qolishmaydi. Endilikdagi asosiy vazifa esa, qabul qilinayotgan Qarorlar va islohotlarni amaliyotda qo‘llashga ma’suliyatli bo‘lgan biz kabi ta’lim pedagoglari, har birimiz shu yuksak ma’suliyatni sharaf bilan ado etishga harakat qilmog‘imiz bu jarayonda o‘zimizning barcha qobiliyat va kuchimizni safarbar etmog‘imizga qartilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг

бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола [Матн] /Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълими вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети. – Т.: “Маънавият” нашриёти, 2017. – 416 б.

2. www.xabar.uz Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев раислигида маданият ва санъат соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишидаги нутқларидан. 2017 йил 25 декабрь.

3. www.unesco.org. Аналитический обзор. Художественное образование в странах СНГ: развитие творческого потенциала в XXI веке. Бюро ЮНЕСКО в Москве; НМУ «Национальный институт образования», 2012.

4. www.unesco.org. Стратегические ориентиры развития художественного образования в странах СНГ. - М.: ЮНЕСКО, Московский государственный университет культуры и искусств, 2013.